

О‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDAGI KREATIV INTEGRATSIYA

NURMATOVA NARGIZA SAIDOVNA

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahridagi 24–maktab direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika jamiyatning rivojlanish qonun-qoidalariga tayangan ilmiy manba ekanligi hamda o‘quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish ekanligiga urg‘u beriladi.

Kalit so‘zlar: dars, integratsiya, tarbiya, mantiqiy tafakkur, tamoyil, innovatsiya.

O‘quv darslari jarayonida xorijiy til yoki ingliz tili elementlarini qo‘shib borish, bolada tilga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi. O‘rganilgan bilimlarni mustahkamlab borishga yordam beradi. Salomlashish, sana, ob-havo haqidagi ma’lumotlar, bugungi dars haqidagi qisqacha tushunchalarni ingliz tilida so‘rash maqsadga muvofiqdir. Agar:

- integratsion yondashuv jarayonida o‘quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlari hisobga olinsa;
- maktab ta'limiga integratsion yondashuvning yaxlit pedagogik tizimlashtirib chiqilsa;
- ona tili va adabiyot darslarini integratsiyalashga pedagogik psixologik yondashuvlarga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa, ta'lim jarayonida samaradorlikka erishish ancha osonlashadi.

O‘quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ammo shu kunga

qadar pedagogik texnologiyaning aksariyati nazariy muammolarga bag'ishlangan bo'lib, uning amaliyotga ta'siri kamroq sezilmoqda. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish talab etiladi.¹

Xususan, pedagogik amaliyotda fanlararo aloqadorlik asosida ta'lim jarayonida integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish yo'lida sezilarli izlanishlar davom etmoqda. Olib borilayotgan ishlarning foydalilik darajasi tan olingan holda, uning tavsifi belgilab o'tiladi. Integratsiyalashgan dars natijalari o'qituvchilarning ijodiy fanlari rivojida namoyon bo'ladi. Fanlararointegratsiya-bir necha o'quv fanining bir-biriga taalluqli sohalarini ko'rsatish emas, balki integratsiyalab o'qitish orqali o'quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Bugungi kunga kelib, jahondagi mamlakatlarning 70 foizi ta'lim tizimida integrativ xarakterdagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanib kelmoqda. Har bir mamlakat ayni shu davlatning ta'lim tizimiga qo'yilgan buyurtmaning tabiatidan kelib chiqqan holda integratsiyaning turli darajalarini ishlab chiqqan va joriy qilib kelmoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasiga qarasak, jumladan, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan bo'lsa, Koreya va Shveytsariyada integratsiyalashgan fanlar yoki alohida o'quv predmetlari, shuningdek, Avstraliyada integratsiyalashtirilgan fanlar, Yaponiya, Shimoliy Irlandiya, Gong-Kong va Germaniyada ham alohida fanlar, Vengriyada madaniyat yo'nalishidagi o'quv fanlari, inson va tabiat, integrativ fanlar, Niderlandiyada alohida o'quv fanlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o'quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o'qitiladi.

Bizning mamlakatimizda ushbu sohada dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Chunonchi, boshlang'ich ta'lim Milliy o'quv dasturida "Ona tili va o'qish savodxonligi", "Matematika", "Tabiiy fanlar", "Texnologiya", "Tarbiya" ta'lim sohalarida belgilab berilgan. O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirish va tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirishga va shu kabi

¹ Suvonqulova A. (2021) Boshlang'ich sinf o'quvchilarini fanlarni integrativ yondashuv sosida o'qitish metodikasi www.iupr.ru

jarayonlarni bajarishga o'rgatish, oddiy tushunchalarni o'zlashtirishda, o'z mulohazalarini bayon qilishda va xulosalar chiqarishda ularga yordam berish demak. Maqsad shunda ko'rinadiki, bunday intilish ularning nutqi aniq, izchil va isbotli bo'lishiga xizmat qiladi. Pedagogikada integrativ atamalarni qo'llash butun o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Agar u to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, shu paytning o'zida o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilishi lozim. Xususan, mantiqiy metodlar (taqqoslash, tahlil qilish, sintezlash, mavhumlashtirish, aniqlashtirish va umumlashtirishni) fanlararo aloqadorlik mazmunida foydalanish orqali tushunchalar, mulohazalar, muhokamalar ustida ishlash natijasida pedagogik jarayonni boyitadi, yanada mazmunliroq qiladi, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga, ta'sir darajasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Umumta'lim maktablarida fanlararo aloqadorlik mazmunida o'qitish ma'lum miqdordagi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida muayyan fikrlash faoliyatini amalga oshiradi va mantiqiy tafakkur rivoj topadi. Bunday fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yishda ta'limiy o'yin vositasi boshqa hamma o'qitish shakllaridan ustun va samarali hisoblanadi, chunki u o'quvchilarning butun hayotini, shaxsiy faolligini, mustaqilligini yo'lga qo'yish imkonini beradi. Pedagog o'yinni oqilona boshqarishni, undan ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishni o'z oldiga maqsad qilishi zarur. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirishga oid ta'lim tamoyillari. Hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim texnologiyalarga asoslangan integratsion ta'lim tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash kabi masalalarni jahon darajasiga chiqarish uchun ilmiy asos hisoblanadi.

Zero, o'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni turli fan dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta'minlovchi didaktik imkoniyat sifatida qabul qilish lozim.

Maktabda integratsion bilimlarni rivojlantirish mazmuniga doir materiallarni tanlash tamoyillari talab etiladi. Bu esa didaktik tamoyillar asosida amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun didaktik tamoyillarga asoslangan holda,

o'quv dasturi materiallariga qo'shimcha qilib fanlararo aloqadorlikni ta'minlash, har bir o'quv materialiga kerakli miqdorda qo'shimcha qilish mumkin. O'quv mashg'ulotlarida uning tizimliliigi va natijaviyligi, nazariy o'quv materiallarining amaliyot bilan bog'liqligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, matnni yoritib berishni e'tiborga olish va tahlil qilish lozim muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli farmoni. Xalq so'zi gazetasi. 2023-y.11-sentabr.
2. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. J O'z.Resp.Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. -Toshkent: «Asian Book House», 2020.
3. Леонтьев А. Н. Эволюция, движение, деятельность . Издание подготовлено при поддержке Российского гуманитарного научного фонда, проект 04-06-00183а «Научное наследие А.Н. Леонтьева и его школы» Издание осуществлено при поддержке Российского гуманитарного научного фонда, проект № 12-06-16068д Издательство «Смысл», 2012.
4. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2017. –B.26
5. M.Hamroyev, D.Shodmonqulova, Ona tili (1-qism: Ona tili) darslik) "Grandkondoprint", Toshkent, 2023-yil. 81.633.1 O-56 Y-6793
6. M.Hamrayev Ona tilidan jadvalli mashqlar to'plami (o'quv qo'llanma) TDPU, Toshkent, 2024-yil 81.633.1 И 37